

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatda 2976 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 623 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,9 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 589 tasi (19,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 299 tasi (10,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 269 tasi (9,0 %) kiyim ishlab chiqarishga, 235 tasi (7,9 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 182 tasi (6,1 %) mebel ishlab chiqarishga, 175 tasi (5,9 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- iyul holatiga ko'ra



II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda korxonalari tomonidan 23 041,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	23 041,3	107,0
Qarshi sh.	2 441,9	103,4
Shahrisabz sh.	424,0	106,1
tumanlar:		
G'uzor	2 429,2	107,3
Dehqonobod	574,6	102,6
Qamashi	403,7	100,4
Qarshi	1 365,4	101,0
Koson	871,3	108,3
Kitob	888,8	102,1
Mirishkor	652,5	107,2
Muborak	588,4	109,8
Nishon	6 185,3	112,6
Kasbi	1 327,8	104,4
Ko'kdala	167,1	108,5
Chiroqchi	464,7	106,1
Shahrisabz	602,2	106,8
Yakkabog'	467,2	92,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (36 060,0 ming so'm), G'uzor tumanida (10 651,2 ming so'm), Qarshi shahrida (8 079,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 301,4 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nishon tumanida (110,2 %), Muborak tumanida (107,7 %), Koson tumani (105,8 %), Ko'kdala tumanida (105,3 %), Shahrisabz va G'uzor tumanlari (105,0 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 935,6 mlrd, so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (77,8 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1 098,1 mlrd, so'm (4,8 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 890,5 mlrd so'm (16,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 117,1 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 16,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 0,4 % ga ko'paygan), 37,2 ming tonna ip kalava (5,6 % ga ko'paygan), 661,8 ming litr aroq mahsulotlari (27,0 % ga kamaygan) hamda 105,0 ming tonna kaliy xlorid (0,6 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	19,1	16,1	16,2
ip kalava, ming tonna	33,1	35,2	37,2
Aroq, ming litr	991,8	906,9	661,8
Kaliy xlorid, ming t.	97,9	105,6	105,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	204,7	184,5	231,5
Poliyetilen, ming t.	68,8	71,8	73,2
Neft, ming t	5,9	5,4	4,8
Tabiiy gaz, mln kub.m.	42,1	108,0	217,8
Gaz kondensati, ming t.	52,3	56,3	58,1
Portlandsement, ming t.	753,4	840,1	773,2

**2024-2025- yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % (2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 60,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,1 % (17,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 30,6 % (26,3 %), quyi texnologiyali 52,6 % (55,3%)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 114,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 92,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	4 068,0	3 756,4	4 315,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 684,6	1 791,7	1 662,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 9,6 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 25,6 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	52 832,6	71 166,3	77 975,4
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 177,9	6 010,2	7 548,6

*2024-2025- yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 033,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 30,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
75 221-32-36 (7010)
